



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|----------------|--|
| 1. | B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. | Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. | G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. | X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. | U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. | D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. | G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. | Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. | Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. | N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. | M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. | S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILY QO'MITASI

- | | | |
|-----|-----------------|---|
| 1. | M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. | M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. | U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. | F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. | L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. | M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. | Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. | M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. | M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. | F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. | N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. | M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor
F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

O'ZBEK, TURKMAN VA TURK TILLARIDAGI IJTIMOY-DISKURSIV BIRLIKLARNING QIYOSIY TAHLILI

Rasulqulova Sitora Shodmonjonovna

International school of finance and technology,

Tashkent, Uzbekistan EFL teacher

sitorarasulqulova@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek, turkman va turk tillaridagi ijtimoiy-diskursiv birliklarning lingvistik, madaniy va sotsiopragmatik jihatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda salomlashuv, minnatdorchilik, iltimos va murojaat shakllarining milliy-madaniy ildizlari, ularning kommunikativ vazifalari va jamiyatdagi ijtimoiy rolini belgilovchi omillar yoritilgan. Muallif ushbu birliklarning til va madaniyat o'zaro ta'sirini, ularning muloqot etikasi va shaxsning nutq kompetensiyasiga ta'sirini ochib beradi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, o'zbek diskursida etik yumshoqlik va samimiyat, turkman diskursida soddalik va an'anaviylik, turk diskursida esa formalizm va institutsionallik ustuvorlik qiladi. Qiyosiy tahlil ijtimoiy-diskursiv birliklarning madaniy kod sifatidagi rolini, shuningdek, bilingv shaxslarning kommunikativ moslashuvchanligini shakllantirishdagi ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-diskursiv birliklar, kommunikativ kompetensiya, sotsiolingvistika, madaniy kod, bilingvizm, pragmatika, til va madaniyat, qiyosiy tahlil.

Abstract. This article provides a comparative analysis of social-discursive units in Uzbek, Turkmen, and Turkish languages from linguistic, cultural, and sociopragmatic perspectives. The study examines forms of greeting, gratitude, requests, and address, emphasizing their cultural origins, communicative functions, and social roles. The author highlights how these units reflect the interaction between language and culture, shaping communication ethics and individual speech competence. The findings indicate that Uzbek discourse is characterized by politeness and emotional warmth, Turkmen discourse by simplicity and traditionalism, and Turkish discourse by formality and institutional structure. The comparative analysis reveals the role of social-discursive units as cultural codes and their significance in developing communicative adaptability among bilingual speakers.

Keywords: social-discursive units, communicative competence, sociolinguistics, cultural code, bilingualism, pragmatics, language and culture, comparative analysis.

Tilshunoslikda ijtimoiy-diskursiv birliklar jamiyat a'zolari o'rtasidagi muloqotning madaniy, axloqiy va kommunikativ me'yorlarini aks ettiruvchi nutq shakllari sifatida talqin etiladi. Ular insonlar o'rtasidagi munosabatlarni muloqot etikasi, milliy qadriyatlar va madaniy kontekst orqali tartibga soladi. O'zbek, turkman va turk tillarida ijtimoiy-diskursiv birliklar umumiy turkiy ildizga ega bo'lib, ko'p hollarda hurmat, kamtarinlik, muomala madaniyati va insoniy qadriyatlar bilan belgilanadi.

Ijtimoiy-diskursiv birliklar quyidagi asosiy guruhlariga ajratiladi: salomlashuv va xayrlashuv birliklari; minnatdorchilik va kechirim ifodalovchi birliklar; murojaat va iltimos shakllari; rasmiy-diskursiv birliklar (institutsional nutqda); norasmiy (kundalik) muloqot birliklari. Bu birliklarning tahlili shuni ko'rsatadiki, uchala tilda ham madaniyat va til bir-birini to'ldiruvchi tizim sifatida amal qiladi. O'zbek tilida ijtimoiy-diskursiv birliklar xalqning qadimiy an'analari, diniy va ijtimoiy qadriyatlari bilan chambarchas bog'liq. N. Mahmudov fikricha, o'zbek nutq madaniyatining ildizi "so'z bilan insonni ulug'lash" g'oyasiga asoslanadi.⁴ Salomlashuv va xayrlashuv: "Assalomu alaykum" – diniy-madaniy ildizga ega, ijtimoiy hurmat belgisi. "Yaxshi boring", "Ko'rishguncha" – xayrlashuvning ijobiy ma'no yuklagan shakllari. Minnatdorchilik: "Rahmat", "Katta rahmat", "Raxmat sizga" kabi birliklar intonatsion va leksik darajada hurmatni kuchaytiradi. Iltimos va murojaat: "Marhamat", "Iltimos", "Zahmat bo'lmasa" shakllari muloqot yumshoqligini ta'minlovchi pragmatik bo'yoqlardir. Bu birliklar

o'zbek diskursida pozitiv politeklikni, ya'ni muloqotdagi do'stona, iliq munosabatni ta'minlaydi.

Turkman tilidagi ijtimoiy-diskursiv birliklar xalq og'zaki ijodi, axloqiy qadriyatlar va milliy odatlar bilan uzviy bog'liq. G. Nuryevning ta'kidlashicha, turkman diskursida "söz - arnamysyň nyşanydyr" (so'z - or-nomusning belgisi) degan prinsip asosiy rol o'ynaydi. Salomlashuv: "Esenmi?" (Sog'misiz?) "Salawmaleýkim" - diniy asosli, hurmat ifodasi. Xayrlashuv: "Sag boluň", "Ömrüň uzak bolsun" - ezgu tilak bilan ajralish ifodasi. Minnatdorchilik: "Sag bol", "Minnetdar" - qisqa, ammo iliq so'z shakllari. Iltimos: "Zahmat çekme", "Ýardam et" kabi ijtimoiy yaqinlikni bildiruvchi madaniy birliklar. Turkman tilidagi diskursiv birliklar ko'proq soddalik, samimiyat va qadriyatga sodiqlik bilan tavsiflanadi.

Turk tilidagi ijtimoiy-diskursiv birliklar zamonaviy sotsiolingvistik tizimda chuqur shakllangan. Doğan Aksan va T. Bozkurtlar bu birliklarni "muloqot madaniyatining grammatik ko'rinishi" deb ta'riflaganlar.⁷ Salomlashuv: "Merhaba", "Selamün aleyküm" - rasmiy va diniy shakllarda ifodalansa, "Nasılsın?", "Günaydın", "İyi akşamlar" - kontekstga qarab tanlanadi. Minnatdorchilik: "Teşekkür ederim", "Sağ olun", "Eksik olmayın" - ijtimoiy statusga qarab farqlanadi. Iltimos: "Lütfen", "Rica ederim" - pragmatik nuqtayi nazardan yumshoqlik ifodalovchi marker [8]. Rasmiy diskurs birliklari: "Sayın Başkan", "Değerli Katılımcılar" - formallik darajasini bildiruvchi birliklar. Turk diskursi institutsionalizatsiya bosqichini o'tgan, ya'ni muloqot shakllari qonun, ta'lim, siyosat, akademik muhitda qat'iy me'yorlashgan. Uchala tilda ham ijtimoiy-diskursiv birliklarning ildizi madaniyatga asoslangan, ammo formalizatsiya darajasi turlicha. O'zbek va turkman tillarida emotivlik kuchli bo'lsa, turk tilida formallik va neytrallik ustuvorlik qiladi.

Ijtimoiy-diskursiv birliklar kommunikativ jarayonda quyidagi funksiyalarni bajaradi: munosabat o'rnatish ya'ni, muloqotni boshlash, aloqa yaratish; sotsial identifikatsiya - ishtirokchilarning ijtimoiy maqomini aniqlash; madaniy kodni ifodalash - milliy qadriyatlarni nutq orqali aks ettirish; hissiy ijobiylik yaratish - muloqotda ijobiy kayfiyatni mustahkamlash. Masalan, o'zbek tilida "Rahmat" so'zi nafaqat minnatdorchilik, balki "sizga ehtiromim bor" ma'nosini ham beradi. Turkcha "Lütfen" esa, nafaqat iltimos, balki muloqotdagi hurmatning me'yorini ifodalaydi. O'zbek, turkman va turk tillarida ijtimoiy-diskursiv birliklar xalqning tarixiy-madaniy dunyoqarashi, milliy tafakkuri va axloqiy qadriyatlari bilan bevosita bog'liq. Ular muloqotda insonparvarlik, samimiyat va hurmat tamoyillarini ifodalaydi. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, o'zbek diskursida samaradorlik va etik yumshoqlik, turkman diskursida soddalik va samimiyat, turk diskursida esa racional va institutsional tartib ustuvorlik qiladi. Bu uch tilda ham ijtimoiy-diskursiv birliklar til tizimining madaniy kodini tashkil etuvchi asosiy qatlamdir. Ijtimoiy-diskursiv birliklar tilshunoslikda shaxsning jamiyatdagi nutq faoliyati, kommunikativ vazifalar va til ichidagi normativ birliklar orqali ifodalanadigan asosiy komponent sifatida qaraladi. Bu birliklar tilning funksional jihatdan strukturaviy elementlari bo'lib, ularning tahlili lingvistik va sotsiologik nuqtai nazardan bir xil darajada muhimdir. Turli tillardagi bunday birliklarni o'rganish orqali bilingv va ko'p tilli shaxslarning kommunikativ kompetensiyasi, shuningdek, tilning ijtimoiy rollari haqida chuqur tushuncha hosil qilinadi.

O'zbek, turkman va turk tillarida ijtimoiy-diskursiv birliklarning shakllanishi asosan quyidagi omillarga bog'liq: tarixiy kontekst, madaniy an'ana, nutq odatlari va kod almashinuvi. Masalan, o'zbek tilida bu kabi til birliklar ko'pincha rasmiy va norasmiy kommunikatsiyaga bo'lingan holda ishlatiladi, bu esa shaxsning kommunikativ moslashuvchanligini oshiradi. Turkman tilida esa an'anaviy kontekstga ko'proq bog'langan bo'lib, turkmanlarning etnik va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi kodlashuvlarni aniqlashda yordam beradi. Turk tilida esa ijtimoiy diskursiv birliklar kommunikativ etiket va ijtimoiy stratifikatsiya orqali tizimlashtirilgan bo'lib, shaxsning nutq kompetensiyasi va jamiyat bilan o'zaro aloqasi bilan chambarchas bog'liq. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-

diskursiv til birliklari nafaqat lingvistik birlik sifatida, balki shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasi, bilingvizm va ko'p tillilik kontekstida nutq kompetensiyasining shakllanishiga ham ta'sir qiladi. Masalan, o'zbek va turkman tillarida bir vaqtning o'zida ikki tilni qo'llash (code-switching) til birliklarining sotsiokultural moslashuvchanligini oshiradi va nutq kompetensiyasini rivojlantiradi. Shu jihatdan, ijtimoiy-diskursiv birliklarning qiyosiy tahlili tilshunoslik va pedagogika tadqiqotlarida asosiy metodologik bazani tashkil qiladi. Terminologik aniqlik ham muhim ahamiyatga ega. Diskursiv birliklar tilning makrostruktural elementlari bo'lib, ular ijtimoiy vaziyatga mos ravishda kommunikativ maqsadni amalga oshiradi. Bunday birliklar quyidagi xususiyatlarga ega: komplekslik: ijtimoiy-diskursiv til birliklari bir necha morfemalar va leksik birliklardan tashkil topadi. Kommunikativ intonatsiya: ya'ni har bir til birliklarining o'ziga xos intonatsion va prosodik xususiyatlari mavjud. Kod almashinuvi: bilingv va ko'p tilli shaxslar o'z nutqlarida turli tillarni birlashtiradi, bu esa ijtimoiy-diskursiv til birliklarini ko'p qirrali qiladi. Sotsiokultural moslashuvchanlik bu kabi til birliklarini jamiyatdagi ijtimoiy rollar va madaniy kontekstga moslashtiradi.

O'zbek, turkman va turk tillarida ijtimoiy-diskursiv birliklarni qiyosiy tahlil qilishda lingvistik, sotsiologik va psixolinguistik yondashuvlar birgalikda qo'llaniladi. Masalan, o'zbek tilida ijtimoiy-diskursiv birliklar ko'proq nutq shablonlariga asoslangan bo'lsa, turkman tilida ular an'anaviy kontekst va etnik identifikatsiya orqali shakllanadi. Turk tilida esa ijtimoiy-diskursiv birliklar kommunikativ etiket, ijtimoiy stratifikatsiya va rasmiy norasmiy kodlashuvlar bilan chambarchas bog'liq. Shu bilan birga, ijtimoiy-diskursiv birliklarning qiyosiy tahlili shaxsning nutq kompetensiyasini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, bilingv shaxs turkman va o'zbek tillarida bir vaqtning o'zida kod almashinuvi qilsa, u o'z ijtimoiy-diskursiv birliklarini yanada boyitadi va nutq kompetensiyasini shakllantiradi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy-diskursiv birliklarni puxta o'rganish, ularni qiyosiy tahlil qilish va pedagogik kontekstga tadbiq etish lingvistik va metodologik jihatdan ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mahmudov N. Til madaniyati va diskurs. Toshkent: Fan, 2010.
2. Shukurov A. O'zbek nutqining sotsiolingvistik asoslari. Toshkent, 2014.
3. Nuryyev G. Türkmen dilinde milli söz. Ashgabat, 2004.
4. Bozkurt T. Türk dilinde hitap biçimleri. İstanbul, 2012.
5. Karimov, Sh. O'zbek tilining ijtimoiy-diskursiv xususiyatlari. T.: Fan, 2010.
6. Nazarov, G. Turkman tili va nutq madaniyati. Ashgabat: Magtymguly, 2008.
7. Grosjean, F. Bilingual: Life and Reality. Cambridge, MA: Harvard University Press, 2010.
8. Baker, C. Foundations of Bilingual Education and Bilingualism. Clevedon: Multilingual Matters, 2011.
9. Kılıç, H. Türkçede iletişim ve dil kullanımı. Ankara: Pegem, 2014.
10. Göksel, A., & Kerslake, C. Turkish: A Comprehensive Grammar. London: Routledge, 2005.
11. Aksan, D. Sosyal dilbilim ve iletişim. İstanbul: Beta, 2012.
12. Myers-Scotton, C. Contact Linguistics: Bilingual Encounters and Grammatical Outcomes. Oxford: Oxford University Press, 2002.
13. Li, P., & Tokowicz, N. Bilingualism and the Brain. Oxford: Oxford University Press, 2017.